

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING CHET TILIDAGI BILIMINI CEFR ASOSIDA BAXOLASH

Mirzakarimova Nilufar Baxtiyor qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti
Xorijiy Filologiya fakulteti
Filalogiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) 4-kurs talabasi.

Ilmий rahbar: **Raximova Gulfiya Rustamovna**

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qarori chet tilini boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitishni joriy qilinishiga imkoniyat berilganligi. Davr talabiga mos, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashda chet tilini mukammal bilish. Mamlakatimiz chekka hududlarida joylashgan maktablarning moddiy texnikalar bilan ta'minlash hamma maktablardagi sinf xonalari to'liq audio jihozlar bilan ta'minlash haqida maktab o'quvchilarning xorijiy tillarda tinglash va gapirish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmayotgali. Maktab bitiruvchilarining aksariyati yozish va o'qish ko'nikmalariga egaligi. Holatni bartaraf etish to'g'risida yozilgan

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim tizimi, xalqaro baholash tadqiqotlari, baholash mazmuni, kompetensiya.

Аннотация: Постановление Первого Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года PQ-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» позволило ввести преподавание иностранного языка, начиная с начальных классов. Безупречное знание иностранного языка при подготовке всесторонне зрелых кадров в соответствии с требованиями времени. Обеспечение материально-техническим оборудованием школ, расположенных в отдаленных районах нашей страны, обеспечение классов во всех школах полным аудиооборудованием в связи с недостаточным развитием навыков аудирования и говорения учащихся на иностранных языках. Большинство выпускников владеют навыками чтения и письма. Написано об устранении ситуации

Ключевые слова: современная система образования, международные оценочные исследования, содержание оценивания, компетентность.

Annotation: Decision PQ-1875 of the First President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of foreign language learning" made it possible to introduce foreign language teaching starting from primary grades. Perfect knowledge of a foreign language in the preparation of all-round mature personnel in accordance with the requirements of the time. Providing schools located in the remote areas of our country with material equipment, providing classrooms in all schools with full audio equipment due to insufficient development of students' listening and speaking skills in foreign languages. Most of the graduates have reading and writing skills. It is written about the elimination of the situation

Keywords: modern education system, international assessment research, assessment content, competence.

Kirish.

Bugungi zamonaviy va tezkor taraqqiyot sari initilayotgan har bir jamiyatda har bir insonning kasbiy faoliyati va hayoti davomida texnologik komponentning rivoj topishi kuzatilmoqda. Shu boisdan ham nafaqat kelajak yillardagi yetuk mutaxassislarni, balki hozirgi vaqtdagi umumiy o'rta ta'limda tahsil olayotgan har bir maktab o'quvchisini bir necha fanlar bo'yicha o'tkir savodxon etib tayyorlashning ahamiyati yuksalib bormoqda. Ayni shundan kelib chiqib, respublikaning Xalq ta'limi tizimida o'qitishning maqsadlarini kuchaytirish choratadbirlari amalga oshirilyapti. Mamlakat bo'ylab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan maktab o'quvchilarining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakat o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ham respublikada mavjud ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilmu ma'rifat, erkin fikr, ilg'or texnologiyalarni tadbiiq etish, jahonda e'tirof etilgan uslub va an'analarni qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.⁴⁷Ta'lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezonlar asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo'llanayotgan va katta samara berayotgan ta'lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo'lishiga qaratilmoqda. Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasida baholashning xalqaro mezonlari qo'llanilmoqda Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega.

⁴⁸Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqidagi qonun»i 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or texnologiyalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.

⁴⁷ Хамдамова М. Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш механизмининг педагогик-психологик асослари (услубий тавсиялар), 2007

⁴⁸ Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181- 063X 237 <http://oac.dsmi-qf.uz>

O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi.

Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarda o'qish ertalab bo'ladi, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan qo'shimcha saboq oladilar.

Matematika, ona tili va adabiyoti bazaviy fan, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

⁴⁹Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

⁵⁰Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. CHuqurlashtirilgan bosqich.

⁵¹Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlari yanada takomillashtiriladi.

Boshlang'ich maktabning 3 - bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir.

Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida «Fuqarolik ta'limi», «Nafosat ta'limi» ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

⁴⁹ PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam " -Axborotahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126

⁵⁰ WWW.CHATGPT.COM

⁵¹ . PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).

⁵²1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab differensiyalashtirish, ya'ni tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari yillik, yarim yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi.

Endi o'z ta'lim tizimimizga qaytsak Ma'lumki, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo'yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tadbiiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatning 2030-yilga borib PISA (The Programme for International Student Assessment) — o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan. Xalq ta'limida sodir bo'layotgan mazkur o'zgarishlar bevosita Oliy ta'lim muassasalari bilan ham bog'liq bo'lib, maktab va Oliy ta'lim muassasalari hamkorlik aloqalari yuksalishiga sabab bo'lmoqda.

⁵³ Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina davlatlari ta'lim tizimida o'z o'rnini mustahkam egallab kelayotgan xalqaro datsurlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual-ma'naviy darajasini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa, milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish etishini ta'minlash bilan birga, ularning kreativligini va komponentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ylantirishga, fikrlay olish doirasini kengaytirishga, ya'ni intellektual-ma'naviy salohiyatini rivoj toptirishga yo'naltirilgan ekan, boshlang'ich sinflarda bu dasturni kengroq ko'lamda tadbiiq etish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Buni namuna tariqasida xalqaro baholash dasturining PIRLS dasturi bo'yicha qaralsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual-ma'naviy darajasini rivoj toptirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi mazkur xalqaro baholash dasturini (PIRSLni) amaliyotga qo'llash va yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omili deyish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual darajasini rivojlantirishda zamonaviy axborot resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish, xalqaro baholash dasturlaridan kerkalicha foydalanish o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish, komponentlar, tushunchalar, ko'nikmalar, jarayonlarni o'rganish va baholash singari yo'nalishlarni ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, O'zbekiston Respublikasiga xos

⁵²PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam "–Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018- yil 8-dekabrda 997-sonli qarori

xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish lozim. Hozir Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini Oʻzbekistonga olib kelib maʼruza oʻqitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi oʻquv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xuddi shu tizim asosida Oliy taʼlim tizimida ishlayotgan tajribali oʻqituvchilarni maktablarga birlashtirish, kafedralarning hududiy filiallarini ochish orqali maktab oʻqituvchilari salohiyatini rivojlantirish ishlari ham jadal olib borilmoqda. Bugungi kunda hamkorlikni boshlagan Oliy va xalq taʼlimi tizimlari oldida turgan asosiy maqsad ham shu — boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga amaliy yordam berish. Boshlangʻich sinflarni Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) bosqichiga moslashtirish uchun quyidagi yoʻlga amal qilish mumkin:

⁵⁴1. A1 bosqichi: Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar qoʻshimcha maʼlumotlar olish va oʻzbek tilini oʻrganishning boshlangʻich bosqichlariga ega boʻlishi kerak. Ular oddiy soʻzlar va ifodalarni tushunish, oddiy savollar va javoblar berish, va oddiy koʻchada gaplashishni oʻrganishlari kerak.

2. A2 bosqichi: Boshlangʻich sinflardagi oʻquvchilar quyidagi bosqichni amalga oshirishi kerak:

- Oddiy maʼlumotlar berish va oʻrganganlarini ishlatish.
- Soddalashtirilgan matnlardan maʼlumot olish va maʼlumotlarni oʻrganganlariga bogʻliq soʻzlar va frazalar ishlatish.
- Oddiy muloqotlar, koʻrsatmalar va gaplashmalar oʻrganish.

3. B1 bosqichi: Boshlangʻich sinflardagi oʻquvchilar quyidagi bosqichni amalga oshirishi kerak:

- Soʻzlar va ifodalarni qoʻllab-quvvatlash, matnlarni tahlil qilish va tafsilotlarni aniqlash.
- Koʻchada va tarjimai hol boʻyicha soʻzlashish, koʻrsatmalar berish va qisqa maqolalar yozish.
- Muammoni echish va oddiy soʻrovnomalar va barcha yangiliklarni tushunish.

4. B2 bosqichi: Boshlangʻich sinflardagi oʻquvchilar quyidagi bosqichni amalga oshirishi kerak:

- Muhim tafsilotlarni yashirish, tarjima qilish va tahlil qilish.
- Bogʻliq soʻz va ifodalarni yodlash va ishlatish.
- Yozuv va gaplarni bajarish, maqola yozish va muloqotlar olib borish.

Bu bosqichlar oʻquvchilarning tillik qobiliyatlari va koʻnikmalarini baholashda yordam beradi va ularning Fransuz tilini oʻrganish darajasini aniqlashda yordam beradi. Har bir bosqichga muvofiq dars va mashgʻulotlar tayyorlash va oʻquvchilarning oʻzlashtirilgan taʼlim yoʻnalishlarini taʼminlash juda muhimdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat innovatsion taraqqiyot yoʻlida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajak davomchilari boʻlgan yoshlarning ijodiy gʻoyalari va ijodkorligini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirish hamda ilgʻor xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yoʻlda xalqaro tajribalarni oʻrganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yoʻnalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

⁵⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-so

Adabiyotlar:

1. Ҳамдамова М. Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш механизмининг педагогик-психологик асослари (услубий тавсиялар), 2007
2. . 2. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 237 <http://oac.dsmi-qi.uz>
3. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam “ –Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.
4. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).
5. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam “ –Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-so
8. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
9. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
10. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
11. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
12. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
13. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
14. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
15. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
16. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.

18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
21. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
22. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
23. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
24. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4]* (2023).